



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 12-mart, № 52 (8675)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON XALQIGA TABRIK

Qadri vatandoshlar!

Butun Yer yuzidagi islom ummati bilan birga jonajon O'zbekistonimizning barcha mo'min-musulmonlari ham qutlug' va muborak Ramazon oyini xursandchilik bilan kutib oldilar.

Dunyo musulmonlari uchun eng aziz va qadri bo'lgan, barcha ezgu niyatlar ijobat bo'ladigan Ramazoni sharifning kirib kelishi bilan siz, azizlarni, butun xalqimizni chin yurakdan muborakbod etib, barchangizga o'zimning yuksak ehtiromim va samimiy tilaklarimni izhor etaman.

Avvalo, qalblarimizga imyon nurini bag'ishlaydigan ushbu ulug' ayyomni yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va

osoyishtalik muhitida, oilamiz, el-yurtimiz davrasida kutib olayotganimiz uchun Parvardigori olamga cheksiz shukronalar aytamiz.

Ma'naviy poklanish, sabr-qanoat, xayru saxovat fazilatlarini ziyoda bo'ladigan mohi Ramazonni milliy an'ana va qadriyatlarimizga mos, yuksak darajada o'tkazish, yurtimiz musulmonlarining ibodat amallarini eminerkin ado etishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi.

"Inson qadri — ulug'" degan olijanob tamoyilimizdan kelib chiqqan holda, mazkur fazilatli oyda xalqimiz manfaatlarini ta'minlash, yosh avlodimizni bilim-ma'rifat, yaxshi xulq-odob sohiblari etib tarbiyalash, ijtimoiy

himoyaga muhtoj kishilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, jamiyatimiz, el-yurtimiz o'rtasida mehr-oqibat va o'zaro hurmat muhitini mustahkamlash, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar, qabristonlarni obodonlashtirishga qaratilgan savobli ishlarimiz yanada ziyoda bo'ladi, deb ishonamiz.

Zero, hadisi shariflarda zikr etilganidek, **bu oyda qilingan birgina yaxshilik o'n karra mukofot bo'lib qaytadi.**

Ming afsuski, bugun dunyoning bir qancha mintaqalarida notinchlik, qarama-qarshilik va to'qnashuvlar sodir bo'lmoqda, begunoh insonlarning qoni to'kilmog'ida. Biz butun xalqimiz bilan birga yaratgan Egamdan dunyoda tinchlik va osoyishtalik qaror

topishini, go'zal diyorimizdagi tinch-osuda hayot bardavom bo'lishini chin dildan so'rab, Qadr kechalarida ixlos bilan duolar qilamiz.

Fursatdan foydalanib, ushbu shukuhli lahzalarda dunyo mo'min-musulmonlarini, do'st va hamkorlarimizni muqaddas Ramazon oyi bilan samimiy qutlab, ularning davlatlari va xalqlariga tinchlik-omonlik, ravnaq va farovonlik tilaymiz.

Ramazoni sharif el-yurtimizga qut-baraka, har bir xonadonga shodu xurramlik, yangi yutuq va omadlar olib kelsin!

Ramazon oyi yana bir bor barchamizga muborak bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

KO'P QIRRALI HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISH MUHIMLIGI TA'KIDLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-mart kuni Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Prezident Shayx Muhammad Ol Nahayonni tavallud kuni bilan dildan qutlab, unga mustahkam sog'liq va baxt-saodat, faoliyatida katta muvaffaqiyatlar, do'st Amirliklar xalqiga tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tiladi.

Ikki mamlakat yetakchilari butun musulmon olami uchun muqaddas bo'lgan muborak Ramazon oyining boshlangani bilan ham bir-birini samimiy tabrikladilar.

O'zbekiston bilan BAA o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik

bugungi kunda yuksak darajaga chiqqani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

2023-yil yakuniga ko'ra o'zaro savdo hajmi 20 foizga oshdi. O'zbekistonda Amirliklar sarmoyasi ishtirokida 300 dan ortiq korxonalar faoliyat

yuritmoqda, ko'shma loyihalar portfeli 4 milliard dollardan oshdi. Bundan tashqari, yuqori texnologiyalar, energetika, geologiya, qishloq xo'jaligi, turizm, IT, infratuzilma, jalistika va boshqa sohalarda istiqbolli loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Tomonlar amaliy hamkorlikni barcha yo'nalishda faollashtirishga tayyor ekanini tasdiqladilar. Bo'lajak oliy darajadagi uchrashuvlarning kun tartibini puxta tayyorlash muhimligi ta'kidlandi.

O'zA.

Biz va jahon

Fransiyadan munosabat:

O'ZBEKISTON PREZIDENTI MAMLAKATNI TASHQI DUNYOGA OCHDI

Parijda O'zbekiston bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirish istiqbollari bag'ishlangan davra suhbatlari o'tkazildi

Mamlakatimiz elchixonasida "O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish istiqbollari bag'ishlangan davra suhbatlari o'tkazildi."

Tadbirda Fransiya Senati, Yevropa va tashqi ishlar vazirligi, ekspert, akademik, madaniyat va jamoat doiralari vakillari, shuningdek, O'zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz direktori Akmal Saidov boshchiligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi ishtirok etdi.

Anjuman chog'ida 2017-yildan buyon O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyati Fransiya tomoniga yetkazildi.

O'zbekiston delegatsiyasi

a'zolari chiqishlarida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash borasida erishilayotgan yutuqlarga alohida to'xtalib o'tildi. O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasida inson huquqlari to'liq aks etgani, ilg'or jahon tajribasiga to'la mos kelishi ta'kidlandi. Shuningdek, fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri sifatida O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi. O'zbekistonning gender tengligini ta'minlash tajribasi bo'yicha batafsil taqdimot o'tkazildi.

Fransiya siyosiy va ekspert doiralari vakillari o'z chiqishlarida O'zbekistonning zamonaviy taraqqiyoti, ko'p qirrali o'zbek — fransuz hamkorligining turli jihatlariga to'xtadilar.



Qonunchilik palatasi fraksiyalarida

ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISHDA MAS'ULLIK VA HUQUQIY ASOS

Kecha siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Unda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan bir qator muhim qonun loyihalarini atroflicha ko'rib chiqildi. Muhokamalarda asosiy e'tibor xalqchil normalar, ularning aholi huquq va manfaatlarini ta'minlashdagi ahamiyatiga qaratildi.

Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun muhim yangilik

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga bo'xona brokeri va xalqaro kuryerlik jo'natmalarini yetkazib berish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Bugungi kunda bo'xona brokerlari faoliyati yo'nalishida ayrim muammoli holatlar mavjud. Jumladan, deklaratsiyalash bo'yicha xizmat ko'rsatish bozorida naqd pul olish orqali "qora brokerlar" ortib, ushbu faoliyat

yo'nalishida "yashirin iqtisodiyot" ulushi tobora ko'payib bormoqda. Ya'ni tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi bilan deklaratsiyalovchi shaxs o'rtasida shartnoma imzolamaydi va soliq organlarida hisobga olinmaydi.

Shuningdek, xalqaro kuryerlik jo'natmalarini yetkazib beruvchi tadbirkorlik subyektlari bilan ham muammolar bor. Bu esa, o'z navbatida, qisqa muddat faoliyat (bir kunlik) yurituvchi kuryerlik tashkilotlari tomonidan olib kelinadigan jo'natmalarni yalpi bo'xona ko'rigidan o'tkazishni bekor qilish orqali xavflarni boshqarish tizimi asosida soddalashtirilgan bo'xona nazoratini amalga oshirish imkoniyatini cheklamoqda.

Natijada nohalol kuryerlik tashkilotlari bilan bir qatorda halol kuryerlik tashkilotlari ham chuqur

bo'xona nazoratidan o'tkazilayotgan bo'lib o'tadi. Unda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan bir qator muhim qonun loyihalarini atroflicha ko'rib chiqildi.

Muhokamada deputatlar qonun loyihasining zarurati va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratib, loyihadagi ayrim normalar bo'yicha qonun tashabbuskorlarini savolga tutishdi. Xususan, fraksiya a'zosi Javlonbek Ergashev bo'xona brokeri sifatida faoliyatni boshlaganlik yoki tugatganlik haqidagi xabaroma bermaganlik uchun jarimalar miqdori nega 20 baravar etib belgilanayotgani sababi bilan qiziqdi.

Qonun tashabbuskorlari bu savolga izoh berar ekan, qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasidan o'tganligi va aynan ularning fikridan kelib chiqqan holda 20 baravar qilib belgilanganlik qayd etdi.

Yig'ilishda, shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi faoliyatining takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ham muhokama markazida bo'ldi.



Mushohada

Avvalo, joriy yilda xalqimiz kundalik hayotida ijobiy o'zgarishlarga erishish bo'yicha tizimli harakatlarni davom ettirish, "yashil" iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish hamda xalq manfaatlariga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsad qilinganini ta'kidlash zarur. Zero, so'z yuritilayotgan Farnon ham, davlat dasturi ham keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan bo'lib, ular da xalqimizning manfaatlarini yanada yaqqolroq aks etgan.

Ma'lumotlarga ko'ra,

muhokamalar davomida fuqarolar va jamoatchilik vakillari tomonidan jami 5,5 mingdan ziyod takliflar kelib tushgan. Birgina Farnon loyihasi yuzasidan 1,5 mingga yaqin, davlat dasturi bo'yicha esa 4 mingdan ortiq takliflar bildirilgan bo'lib, ularning aksariyati inobatga olingan.

Davlat dasturida xavfsizlikni ta'minlashga, axborot texnologiyalari hayotimizga jadal kirib kelishi natijasida yuz berishi mumkin bo'lgan kiberinjyatlarning oldini olishga, ko'chalarda avtomashinalar soni ortishi orqasidan ekologiyaga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlarni va yo'llardagi tirbandliklarni bartaraf etish masalalariga ham alohida o'rin ajratilgan.



SURXON KENGLIKLARIDA YANGILANISH NAFASI

Bugun mamlakatimizning qay go'shasiga, qay manziliga bormang, Vatanni yanada obod etish istagida yashayotgan yurtodoshlarimizning ezgu ishlariga quvoh bo'lishingiz mumkin. O'zbekistonimizning bugungi jamoli, ko'rk kishini hayratga soladigan darajada o'zgarib, go'zallashib va obodonlashib bormoqda. G'ayrat-shijoatli, tadbirkor va bunyodkor xalqimiz sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohalarida ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritmoqda. Eng muhimi, yangi O'zbekistonda "Inson qadri uchun" degan tamoyil barcha islohotning asosini tashkil etmoqda.

Ko'z o'ngimizdagi o'zgarishlar

Bugun Surxondaryoni agrar hudud deb bo'lmaydi

Ayonki, iqtisodiy taraqqiyot va ma'naviy-ruhiy rivojlanish uyg'unligida hudud taraqqiy etadi. Surxondaryoning ham katta iqtisodiy

salohiyati bilan birga, mard va mehnatkash xalqi borligi bois yaqin yillarda ham agrar hudud bo'lgan viloyat iqtisodiyoti yil osha yuksalib borayotir. Aholining daromad manbai oshayotgani kambag'allik darajasini 13,8 foizdan 11,2 foizga kamaytiradi.



Munosabat

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 7-martdagi "Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o'tkazish to'g'risida"gi qarori xalqimiz uchun ezgulik, birdamlik, olijanoblik va shukronalik timsoli bo'lgan qutlug' Ramazon oyini yuqori saviyada o'tkazish, diniy-ma'rifiy, madaniy qadriyatlarimizni asrab-avaylashga qaratilgan muhim chora-tadbirlarni belgilab bergani bilan xalqimiz ruhiyatini yanada ko'tarib yubordi.



Qutlovlar kelishda davom etmoqda.

RAMAZON — MEHR-MURUVVAT, XAYRU SAXOVAT OYI

Bismillahir Rohmanir Rohim.

Xalqimiz hayotida ma'naviy poklik, mehr-oqibat, xayru saxovat fazilatlarini sayqallanadigan muborak Ramazon oyining ahamiyati beqiyos. Yurtdoshlarimiz ushbu muborak oyni doim katta quvunch ila kutib oladi. Oila va mahallalarda o'zaro mehr-oqibatni mustahkamlash, yosh avlodni bilim-ma'rifat sohiblari etib tarbiyalash, ehtiyojmand insonlarga yordam ko'rsatish kabi savobli amallarni ixlos bilan ado etishga intiladi.

